

IJTIMOYIY SHERIKLIK: DAVLAT VA FUQAROLIK JAMIYATI O'RTASIDAGI SAMARALI HAMKORLIK MODELI

Kulturayev Shohjahon Zarqorayevich

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19947407>

Fuqarolik jamiyati institutlari va davlat o'rtasidagi o'zaro hamkorlik zamonaviy demokratik huquqiy davlat barpo etishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Xususan, davlat hokimiyati organlari faoliyatining ochiqligi, shaffofligi hamda fuqarolarning davlat boshqaruvidagi ishtirokini ta'minlash masalalari fuqarolik jamiyati institutlari bilan samarali sheriklik mexanizmlarini shakllantirishni talab etadi.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida fuqarolik jamiyati institutlarining huquqiy kafolatlarini ta'minlaydigan, zamonaviy demokratik talablarga va xalqaro standartlarga javob beradigan normativ-huquqiy baza yanada takomillashtirildi. Buning natijasida **20 dan ziyod** qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining hujjatlari va Hukumatning qarorlari qabul qilindi.

“O'zbekiston – 2030” strategiyasida ham xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish va jamoatchilik boshqaruvini takomillashtirish bo'yicha islohotlar alohida yo'nalish sifatida belgilandi.

O'zbekiston tarixida birinchi marotaba Prezidentimizning 2021-yil 4-martdagi PF-6181-son Farmoni bilan **2021–2025 yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi** qabul qilindi¹.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahririda fuqarolik jamiyati institutlarining maqomi, ularning davlat bilan o'zaro munosabatlari hamda ijtimoiy sheriklik tamoyillari yanada mustahkamlandi.

Yaratilayotgan qulay sharoitlar natijasida fuqarolar huquqini, demokratik qadriyatlarni himoya qilish, ta'lim, tibbiyot, madaniyat va boshqa sohalarida qariyb **10 mingta nodavlat notijorat tashkilotlar** erkin faoliyat yuritmoqda, ularda **70 mingga yaqin insonlar** mehnat qilmoqda, NNTlar har yili davlat dasturlarining **350 dan ortiq bandlari ijrosida** bevosita ishtirok etmoqda².

Shu bilan birga, mamlakatimizda kuzatilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy rivojlanishning jadal sur'atlari, o'z navbatida, nodavlat notijorat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining rolini yanada oshirish, ularning faoliyatini rivojlantirish uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratish zarurligini taqozo etmoqda.

Bundan tashqari, davlat va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi sheriklikning amaldagi modellari, ularning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari, institutsional va funksional mexanizmlari yetarli darajada tizimli o'rganilmagan. Amaliyotda davlat organlari va nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy birlashmalar, fuqarolik jamiyati boshqa institutlari o'rtasidagi hamkorlikda bir qator muammolar, xususan, normativ-huquqiy bazaning yetarli darajada mukammal emasligi, vakolatlarning aniq chegaralanmaganligi, ijtimoiy buyurtma va davlat-grant mexanizmlarining samaradorligi bilan bog'liq masalalar mavjud.

¹ <https://lex.uz/ru/docs/-5319756> – Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.

² <https://t.me/adliyangiliklari/26812> — O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi rasmiy Telegram kanali.

Shuningdek, rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, fuqarolik jamiyati institutlari va davlat o'rtasidagi sheriklikning turli modellari (konsultativ, institutsional, kontraktual va boshqalar) mavjud bo'lib, ularni milliy huquqiy tizimga moslashtirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mazkur holatlar "fuqarolik jamiyati va davlat o'rtasidagi sheriklik modellari"ni konstitutsiyaviy-huquqiy jihatdan kompleks tadqiq etish, ularning nazariy asoslarini ishlab chiqish, amaldagi qonunchilikni takomillashtirish hamda samarali huquqiy mexanizmlarni taklif etish zaruratini yuzaga keltiradi.

Qayd etish o'rinliki, **ijtimoiy sheriklik** – bu davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasida jamiyat manfaatlarini yo'lida o'zaro hamkorlikni anglatadi. Mazkur tizim nafaqat davlat boshqaruvi samaradorligini oshiradi, balki aholining ijtimoiy faolligini kuchaytiradi, qarorlar qabul qilishda jamoatchilik ishtirokini ta'minlaydi.

Qonunchilikda belgilanganidek, ijtimoiy sheriklik **davlat organlari bilan fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish, shuningdek fuqarolarning huquq va manfaatlariga daxldor qarorlarni qabul qilish jarayonidagi hamkorlikni** anglatadi³. Bu ta'rifning o'ziyiq ijtimoiy sheriklikning nafaqat maslahatlashuv, balki amaliy faoliyatga yo'naltirilgan tizim ekanini ko'rsatadi.

Birinchidan, ijtimoiy sheriklikning **asosiy prinsiplari** – qonuniylik, teng huquqlilik, ochiqlik, shaffoflik va o'zaro hurmat – uning samaradorligini ta'minlovchi poydevor hisoblanadi. Agar ushbu prinsiplarga amal qilinmasa, hamkorlik bir tomonlama yoki formal tus olib qolishi mumkin. Masalan, ochiqlik va shaffoflik ta'minlanmagan holatda fuqarolik jamiyati institutlari davlat qarorlariga real ta'sir ko'rsata olmaydi. Shu bois, prinsiplarga rioya qilish nafaqat huquqiy talab, balki amaliy zaruratdir.

Ikkinchidan, ijtimoiy sheriklikning keng qamrovli sohalarda amalga oshirilishi uning jamiyat hayotidagi ahamiyatini yanada oshiradi. Aholini ijtimoiy himoya qilish, bandlikni ta'minlash, sog'liqni saqlash, ta'lim, yoshlar tarbiyasi, atrof-muhitni muhofaza qilish kabi yo'nalishlar bevosita inson manfaatlarini bilan bog'liq. Shu sababli bu sohalarda fuqarolik jamiyati institutlarining ishtiroki davlat siyosatini yanada hayotiy va ehtiyojlarga mos qiladi. Masalan, nodavlat notijorat tashkilotlari aholining muammolarini joylarda chuqurroq biladi va bu bilim siyosiy qarorlarni takomillashtirishga xizmat qiladi.

Uchinchidan, qonunda belgilangan ijtimoiy sheriklik **shakllari** – birgalikdagi dasturlar ishlab chiqish, normativ-huquqiy hujjatlarni tayyorlashda ishtirok etish, ishchi guruhlar va komissiyalarda qatnashish – hamkorlikni tizimli ravishda yo'lga qo'yishga imkon beradi. Bu jarayonlarda fuqarolik jamiyati institutlariga tashabbus ko'rsatish, jamoatchilik ekspertizasini o'tkazish va nazorat qilish huquqi berilgani alohida ahamiyatga ega. Bu esa davlat boshqaruvida "pastdan yuqoriga" tamoyilining kuchayishiga olib keladi.

To'rtinchidan, ijtimoiy sheriklikni **davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari** – subsidiyalar, grantlar va ijtimoiy buyurtmalar – ushbu tizimning barqaror ishlashini ta'minlaydi. Ayniqsa, grantlar va ijtimoiy buyurtmalar orqali fuqarolik jamiyati institutlari aniq loyihalarni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa nafaqat ularning institutsional salohiyatini oshiradi, balki davlat uchun ham ayrim ijtimoiy muammolarni

³ <https://lex.uz/docs/-2468214> – Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.

samarali hal etish vositasiga aylanadi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, moliyaviy qo'llab-quvvatlashning shaffof va adolatli taqsimlanishi tizimga bo'lgan ishonchni mustahkamlaydi.

Beshinchidan, ijtimoiy sheriklik **subyektlarining huquq va majburiyatlari** o'rtasidagi muvozanat muhim ahamiyat kasb etadi. Fuqarolik jamiyati institutlari keng huquqlarga ega bo'lishi bilan birga, ular faoliyatining ochiqligi, mablag'lardan maqsadli foydalanish va majburiyatlarni bajarish uchun javobgardir. Xuddi shuningdek, davlat organlari ham nafaqat tashabbuslarni qo'llab-quvvatlashi, balki jamoatchilik bilan muntazam muloqot olib borishi va ularning takliflarini inobatga olishi shart. Bu o'zaro mas'uliyat tizimning samarali ishlashini ta'minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy sheriklik – bu davlat va jamiyat o'rtasidagi oddiy hamkorlik emas, balki demokratik boshqaruvning ajralmas qismidir. U orqali fuqarolar davlat boshqaruvida bevosita yoki bilvosita ishtirok etadi, davlat esa o'z faoliyatini yanada ochiq va samarali tashkil etadi. Shu bois, ijtimoiy sheriklikni rivojlantirish nafaqat huquqiy mexanizmlarni takomillashtirishni, balki amaliyotda haqiqiy hamkorlik muhitini yaratishni talab etadi.

